

DAMAT SALMANO'G'LI

**TANLANGAN
SHE'RLAR**

**TOSHKENT
2024**

Tajrimonlar:

*Gulbahor Ashurova, Rahmat Bobojon,
Gulzira Sharipova, Alp Asli (Asliddin Omonov)*

To'plab nashrga tayyorlovchi:

Mammadzoda Karimulla –
filologiya bo'yicha falsafa doktori

Damat Salmano'g'li.


Tanlangan she'rlar. Toshkent, 2024. – 96-bet.

SO'ZBOSHI

She'riyat azaldan inson qalb kechinmalarini, ichki olamini kashf etishga intilib keladi. Damat Salmano'g'lining she'rlarida uning ichki dunyosi va o'z davrining muhim masalalari rang-barang tasvirlar orqali o'zining badiiy in'ikosini topgan. Shoirning ijodi mazmuni, fikrlar teranligi, badiiy ifodaning o'ziga xosligi bilan ahamiyat kasb etadi, she'rlaridagi mavzular o'quvchini mushohadaga chorlaydi, o'ziga xos badiiy topilmalar yaratishga erishadi. Olam va odam mavzusi turli tillarda, turli ohanglarda, turli ranglarda har qancha tovlanmasin, har bir ijodkor nigohida yangilanadi. Shoir Damat Salmano'g'li she'riyatida bu ohanglar turlicha, hazin yo shodon, gohida dardli, goho jo'shqin, gohida sokin oqadi. Ayniqsa, sevgi, muhabbat mavzusini shoir she'rlarida ohorli ifodalarda korish mumkin:

*Kechalar uyqumga kirarsan qaydan,
Samoda porlagan bir yulduz misoli.
Ma'sum boqishlar-la g'arq etib meni,
Qochib yoq bo'larsan, sho'x qiz timsoli...*

*Qo'y sen-la ro'yolar tasallim bo'lsin,
Ne bo'lar, kelsang-u, boshqa ketmasang,
Pari, tushlarimda zulm etma menga,
Kechadan bir qadam, tongda sen ketma.*



Insonda vatan hissi, faxr-iftixor tuyg'usi shu vatanning egasi bo'lgan xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodir bo'lganini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Qachon insonning qalbi g'ururga, iftixorga to'ladi? Qachonki, odam o'zi yashayotgan yurti, vatani, unda hayot kechirayotgan odamlarning orzu-intilishlari va qilayotgan mehnatlari samarasidan, baxti, toleyidan qoniqish hosil qilsagina, uning qalbida g'urur va faxr tuyg'ulari jo'sh uradi.

Damat Salmano'g'li ozod Qorabog'i, kurashi va galabasi, mustaqil Vatani Ozarbayjonning bir farzandi yanglig' sidqidildan, ko'nglini osmonlarday keng ochib kuylaydi. Turkiy elini, ulug' Vatani o'ziga xos, hammaga tushunarli, sodda, ravon ifodalarda tasvirlaydi, tarannum etadi. Shoirning qad-u bastini, qalbining qiyofasini, ko'ngil dunyosini uning she'ri ko'satadi! Uning zohiri ham, botini ham uning she'ridir. Damat Salmano'g'li ijodiga omad va barakalar tilaymiz.

***Gulbahor Ashurova,
filologiya fanlari doktori,
Fuzuliy nomidagi ilmiy tadqiqot
markazi rahbari***

TO'LQINLAR

Xuddi oshiqlar kabi,
To'lqinlar quchoqlashar.
Ayriliq og'rig'ini,
Bir-biriga aytishar.

Ba'zan qaysar boladek,
O'ynoqlaydi to'lqinlar.
Dengizning havosida
Muhabbatning atri bor!

Eng g'amli chog'larimda,
Hamdamim bo'lar dengiz.
Uning-la dardlashaman,
Ba'zan sassiz, samarsiz.

Hasrat ila, g'am ila,
To'lib toshganda yurak.
Dengiz tasalli berar,
Mening tug'ishganimdek.



O'G'UZ YURTI OZARBAYJON

Turkning kuchi birlikdadir,
Aqidasi dur yashaydi.
Davlat qurib bu jahonda
Insonlari hur yashaydi.

To'fonlarga ko'krak kerib,
Qilmaydi hech andishasi.
Turk erur bu, dunyoning,
Jannat bo'lib har go'shasi.

Tug'ishgandir bir-biriga,
Lahjalari, shevalari.
Turk nomi-la Vahdat qurib,
Sunniylari, shialari.

Shumerlar-u, Oltoylardan,
Kechmishidir tarix yo'li.
Har davrda izi qolgan,
Sharaf to'lgan, shuhrat tolig'.

Sharqda ilk bor, demokratik,
O'lka qurdi Ozarbayjon.
Turonning shoh tomirisan,
O'g'uz yurti, Ozarbayjon!

MEN TURKIYMAN

Men Turkiyman, Turk o'g'liman!
Jasur O'g'uz bo'ynidanman.
Yaratganim qodir Alloh,
Dinim islom,
Payg'ambarim Muhammaddir, subhanallah.

Yuragimda bor,
Elning ishq,
Elning g'ami.
Insonlarga hurmatim bor.
Ko'zlarimda, ruhimda bor,
Dushmanlarga, yog'iy'larga, yovga qarshi
bir sher fahmi.

Buyik turkning yaralgandan,
Hukmi bo'ldi og'ir zahmi.

Bilur dunyo, bilur olam,
Turk millati yengilmasdir!
Shonli, shuhratli bayrog'i,
Yuksaklardan pastlamasdir!

Turk millatin sevmaganlar,
Ming bir o'yin, hiyla ila,
Ishg'ol etti vatanimning bir parchasin.
O'z yurtidan quvg'in bo'ldi,
Minglarcha opa-singil, akalarim.





Asir tushdi tog'im, daram,
Bolalarim parron-parron.

Ko'p aytildi:

“Havolanmas Xonning sasi,
Qorabog'ning shikastasi”.
Qorabog'im!

Qasosli ont yerim manim.
Jannatisan Ozarbayjon millatining.
Quyosh chiqdi!
So'nggi keldi ingan bunday zulmatining!

Yigitlarga, eranlarga hujum amri berilgan on,
Vatan uchun jon berdilar,
Qon to'kdilar.

Sinov ustun qirq to'rt kunga,
Zafar nomli yo'l ochdilar.
Bu yo'l seni birlashtirdi,
O'ttiz yillik o'tmishingga.

Bu yo'l seni ozodlikka oborgan yo'l,
Bu yo'l seni asoratdan qutqargan yo'l.
Bu yo'l o'tar Zangizurdan,
Hasratlarni yo'q etajak,
Yondirajak.

Bu yo'l sening do'stlaringni sevintirib,
Dushmaningni sindirajak.
Turk o'g'liman!
Shahid bo'lib yurtim uchun bersamda jon,
Bilamanki,
Sen butunsan,
Sen ozodsan, Ozarbayjon!





ILOHIY GO'ZALLIK ARMUG'ON ETIB

Sizilar kulgular dudoqlaringdan,
Husningni ko'rganlar oh-fig'on etib.
Seni paydo qilgan Qodir Yaratgan,
Ilohiy go'zallik armug'on etib...

Xamiring qorilgan ishq moyasidan,
Ruhingga nuridan sepib atrini.
Sochingni yomg'irdan asramoq uchun,
Ajib daraxtlar yoymish chechak atrini.

Ne bo'lar, shoirga zulm qilmasang,
Qalbin o'rtamasa issiq nafasing.
Sevaman so'zini pichirlab deya,
Yuragin titratsin ovozing, sasing.

KETMA

Kechalar uyqumga kirarsan qaydan,
Samoda porlagan bir yulduz misoli.
Ma'sum boqishlar-la g'arq etib meni,
Qochib yoq bo'larsan, sho'x qiz timsoli.

Shundayki, istadim tutsam qo'lingni,
Qochaman ortingdan yeta olmayman.
Sen meni hayotda tuta olarsan,
Men seni uyqumda tuta olmayman.

Suzib ko'zlaringni, uchirib qoshing,
Otarsan ruhimni o'tlarga gulim.
Yetim bola kabi bo'ynimni bukib,
Yotlarga rashk ila qarayman gulim.

Qo'y sen-la ro'yolar tasallim bo'lsin,
Ne bo'lar, kelsang-u, boshqa ketmasang,
Pari, tushlarimda zulm etma menga,
Kechadan bir qadam, tongda sen ketma.



QO'LIMNI QO'LINGDAN OLMAGIN DEYMAN

Qalbimni qirmoqqa urinma gulim,
Men sendan ranjigan, xafa emasman.
Yuzingni o'girib uzoqqa ketma,
Qo'limni qo'lingdan olmagin deyman.

Biz yurgan yerlarda kimlar kezarlar?
Sochiga gullardan chaman tuzarlar?
Bilaman ne hasratlar menga yetarlar,
Nega men firoqqa sabr etolmayman?

Ayriliq shamoli bevaqt essa ham,
Hislarim lol qolib, qalbim sezsa ham,
Sensizlik burdalab mani kessa ham,
Sendan umidimni uza olmayman.

Damatman, kentlar-u, ellar kezaman,
Majnundek sahrolar, cho'llar kezaman.
Nimani axtarib, qanday kezaman,
Sensiz baxtli onni keza olmayman.

SHABNAM MUHABBATI

Bir so'yla, sen nega bundaysan axir?
Juda tez ranjigan, bir oz dallivash,
Goh kular ko'zlarining sevinch ichinda,
Gohida o'ychansan, g'ussali, chalkash.

Balki ruhlarimiz ming yillar avval,
Birga yashagandir jon deya-deya.
Yurgan har qadaming eslay olmayman,
Yaqinsan, azizsan, bilmadim nega?

Kel gulim, qalbimning sultoni bo'l, san,
Ey mening ruhimning ruh muhabbati.
Qalbinga malhamdir nozli kulishing,
Hayotim gulining pok muhabbati.



UZOQQA KETMA

Qo'lingni qo'limdan olmagin, gulim,
Umringa qasd etib mani tark etma.
G'uncha tabassuming ruh berar menga,
Ayrilib yonimdan uzoqqa ketma.

Ohu ko'zlaringning xastasi bo'ldim,
Nurli oy chehrangdan men ilhom oldim.
Hijroning dastidan sarg'ayib so'ldim,
Ayrilib yonimdan uzoqqa ketma.

Valloh, parchalanib sinar yuragim,
Asli o'z-o'zidan tonar yuragim.
Hasrat-la olishib yonar yuragim,
Ayrilib yonimdan uzoqqa ketma.

BU DUNYONING TOSH YODDOSHI

Shahidlarning hayot yo'li,
Yoddoshlarga iz solajak.
Har ochilgan yangi sahar
Kechangdan bir kuch olajak.

Har biri bir tarix uning,
Shahidlarning qabrtoshi.
U dunyoning oynasidir,
Bu dunyoning tosh yoddoshi.

Kelajak-la shivirlashar,
Sokin va jim boqishlari.
Ozod Vatan lavhasining
Shahid otlig' naqshlari.

U tosh qotgan nigohlari
Omonatdir Vatan, deydi.
Muqaddasdir ona kabi,
Qo'l uzatmas yetgan, deydi.

Vatanga qo'l uzatganda,
Parchalanar tog'-u toshi.
Yiqilar shahid mozori,
Bu dunyoning tosh yoddoshi!



SHAHIDIM BOR

Yana bir shahidim bor,
Bayroqdan kafan biching.
Yana shahid onasi
Yig'laydir ichkin-ichkin.

Ko'tardi cho'qqilarga
Muqaddas bayrog'ini.
O'zgaga topshirmadi
Bir siqim tuprog'ini.

Ichdi Vatan yo'lida
Shahodat sharbatini.
Isbot qildi dunyoga
Turkning mahoratini.

Har bir shahid bir quyosh,
Zulmatga nur keltirdi.
Ozodlik chechagini
Yuraklarda o'stirdi.

EHTIMOL

Ko'p bo'ldi ko'rmadim gul jamolimni,
Yuzma-yuz kelmaymiz endi ko'chada.
Go'yo o'gaylashgan, yotlashgan go'yo,
Tavba, bu shaharda kunduz-kecha ham.

Ilk diydor yerimiz – terak daraxti,
Seni ko'rmagandan yomon sog'ingan.
Tez o'tib bahori, sarg'aygan, so'lgan,
Go'yo kuzagini zamon sog'ingan.

Ehtimol bu ko'chada kezmaganmiz biz,
Balki xayolimning uydirmasidir.
Bilmayman, ehtimol, adashayapman,
Ehtimol tuyg'ularim charchagandandir...



QANDAY SEVISHIM

Sevgimning boshiga toj bo'lgan ayol,
Bir so'yla, men seni qanday sevishim?
Ishqing sharobi-la sarhush qilgansan,
Bir so'yla, men seni qanday sevishim.

Bir nafas uzoqda bo'lding, sog'indim,
Do'nib xayolimda qolding, sog'indim,
Xayolim boshimdan olding, sog'indim,
Bir so'yla, men seni qanday sevishim.

Ko'zlaring moviysi go'yo bir dengiz,
O'tdi yuragimdan solganing har iz,
Yana go'zalliging oldida ojiz,
Bir so'yla, men seni qanday sevishim.
Kel so'yla, men seni qanday sevishim.

KELGAN KUN

Oxiri xush ertak kabi,
Umidlaring chin bo'lajak.
Bugun kelsang uchrashuvga,
O'tgan galgi kun bo'lajak.

Birga o'tgan vaqtlarimiz,
Zamon qo'shar umrimizga.
Kel, birga qadam tashlaylik,
Yangilangan kunimizga.

Sevgimizdan o'choq qilsak,
Olovlansin muhabbating.
Mening ko'ngil saroyimga,
Yoyilsin bir tarovating.

Yana kelging, shahlo ko'zlim,
Juft ketaylik erta kunga.
Bizning hayot bog'imizda,
G'unchalasin sevgi yana...



AYOL

Dunyo qadar dunyo darding bor sening,
Bahor orzularing bo'ron, qor sening,
Tanholik-la yolg'iz qo'ydi yor seni,
Dardini quchoqlab yashagan ayol.

G'ussa-yu kadarni qalbingga ekib,
Qo'l yetmas sevgining yukini tortib,
Qomati egilib, qaddini bukib,
Dardini quchoqlab yashagan ayol.

Dafn etib qalbiga o'z faryodini,
Bilmadi bir umr sevinch totini,
Asrab-avayladi u sof otini,
Dardini quchoqlab yashagan ayol.

AYLAYDI

Yana kelib fasli bahor,
Bulbul xush ovoz ayladi.
Binafshalar kulimsirar,
Tog'-u toshga noz ayladi.

Oppoq gulim, ko'k o'rmonin,
Chiq sayriga gul-gulshanin,
Bo'yni egik binafshaning,
Atrida parvoz ayladi.

Yetishar tutashgan qoshlari,
Ko'rib alvon naqshlarni,
Suzgun-suzgun boqishlari,
Sevganni hamroz ayladi.

Shamol bo'lib esgan kabi,
Umidimni uzgan kabi,
Biror marta bezgan kabi,
Yozimni ayoz ayladi.



UL SHAHLO KO'ZLARNING...

Meni maftun etgan nozli dilbarim,
Kelgandi tushimga yana bu kecha.
Ko'nglimga yoyildi jannatning atri,
Sochin hidlaganda uning ohista.

Turdik biz yuzma-yuz, tushdi ko'z ko'zga,
Iliq nafasidan oldim ilhomni.
Tutib qo'llarimdan bir bola kabi,
Yozdirdi dilimga sevgi kalomin.

Ul shahlo ko'zlarning nozli boqishi,
Boqib ko'zlarimga shivirlashardi.
Visol mushtoqlikdan olgandi qasos,
Ko'ksimga siqilib quchoqlashardi...

SOG'INCH SHE'RI

Ko'rmayman yuzingni qachondan beri,
Ey sevgan qalbmning buyuk hakimi.
Sog'inching azobi og'irmish, gulim,
Men sensiz o'tkazgan kunlarim kabi.

Senli kunlarimni yodga olsam gar,
Shirin xotiraga to'ladir yurak.
Ketganda barini olib ketding sen,
Demagin, ko'ksingda uradir yurak.

Dardim-la xastadir barcha dardlar ham,
Hijron og'rig'iga chiday olmasman.
Barcha umidlardan uzdim qo'limni,
Sendan umidimni uza olmasman.



BOR

Ko'ksimda har lahza sevgi ila gurillab yongan
yurak bor,

Yaxshiyam sendek dilbarni toleyimga yozgan
malak bor.

Shunchalar go'zal davr-u zamondir, yangi
dunyoga ko'z ochdim,

Tonggacha sening-la ulg'aygan shunchalar
orzu-tilak bor.

Qalbimni rom aylagansan bir boqishing-la,
ohu ko'zlim,

Bunchalar noz-u karashma birla o'ldirmoq
kerakmi yor?

Go'zalim, kelgin, sayr etaylik bu gulistonni
birga biz,

Sha'ningga ko'r qanchalar g'unchalagan
yangi chechak bor.

Damatning nafasi silasa agar kokilingni, ey yor,
Demagin, qora sochingni to'zg'itgan yel bor,

kulak¹ bor.

¹ Kulak – shabada ma'nosida.

YASHAT MENI

Tong saharda g'uncha gullar ochganda,
Tongning yeli gulbarglarni o'pganda,
Quyosh kabi qalbimga kir,
Uyg'ot meni, sevgilim.

Yashat meni yuragimda yashatmoq-la,
Tilagimda yashatmoq-la,
Orzuyimda yashatmoq-la,
Quyoshim bo'l, sevgilim.

Nafasing-la isit meni!
Kokillaring sep yuzimga.
Bo'sang ila oydinlansin umr yo'lim.
Sevging ila misralangum.

She'ring bo'lay,
So'zing bo'lay,
O'qi meni varaq-varaq,
Satr-satr.
O'qiganda shiviringdan olgum atir.

Mayli qizg'onsin dunyo meni,
Hayot meni.
Yashat meni!



KO'NGLIMGA SINGDI

Yuzma-yuz to'xtadim sevgilim bilan,
Dunyo og'riqlari qalbidan ketdi.
Etni chechakdan, guldan olgani,
Nafasi sizilib ko'nglimga singdi.

Ilk kundan zabt etib qalb saroyimni,
Bu ishqning bir umr quli bo'libman.
Zulmat kechalarda u sho'x malakning,
Nurga g'arq bo'lgan yo'li bo'libman.

O'zim ham bilmayman, nima bo'lganim,
Tasavvur qilolmasman usiz hayotni.
Na yurak so'zlarim misraga sig'ar,
Na yetmas ko'magi she'rni, bayotni.

Bu ne jozibadir va bu ne kuchdir,
Qarasam o'zimni o'zimdandolar.
Men ishqning oviman, u mohir ovchi,
Bitta nigoh bilan kamonga solar.

BUGUN SENGA SIM QOQDIM

Bugun qildim qo'ng'iroq,
Ahvolingni so'radim.
Borligingni his etib,
Yo'qliging-la qovushdim.

Biz tomonga qor yog'ar,
Sizda havo qandaydir?
Yo Rab, sen ketgan kundan,
Kunduzim ham zulmatdir.

Chumchuqlar chug'urlashar,
Don berguvchilari yo'qdir.
Nafasing-la isingan
Bog'-bog'cha ham sovuqdir.

Mehmon-izmonli uyning,
Yo'qdir kelib ketgani.
Sassizlikni his etar,
Har bir yo'ldan o'tgani.

Bugun senga sim qoqdim,
Dedim ko'ray qandaysan.
Meni so'rma qandayman...
Kutayapman ne vaqtdan.

O'tishing bu ko'chadan,
O'tishing bu ko'chadan...

SEVGAN YURAGIMNING YUKSAK YERISAN

Ay mening umrimga sirli kelganim,
Yillar bo'yi ruhim kutgandi seni.
Seni ko'rganidan bo'lib nigoron,
Ko'zlarim har yerda axtarar seni...

Kelishing ko'nglinga xush ahvol bo'ldi.
Nurli tonglarimni zimiston etma.
Sensiz o'tgan umr qish bo'lar menga,
Bahoriy hislarimni ko'tarib ketma.

Ko'zni qamashtirgan go'zallar ko'pdir,
Sen mening ko'zimda o'zgachadirsan.
Qalb yonbag'rida toldi qanchasi,
Sevgan yuragimning yuksak yerisan.

Kel mening sevgimga bir onlik boqma,
U senga yuborilgan Alloh ne'mati.
Mening muhabbatim sening umringni,
Kunduz Quyoshidir, tunlari Oyi...





RUHIMIZ DUNYOGA QO'SHA KELIBDI

Sen suv parisidek shunday zarifsan,
Oy ham ko'zlaringga sajdaga kelar.
Har tongda ufqdan quyosh bo'ylanib,
Nuringdan nur olib mujdaga kelar.

Malla sochlaring-la qalam qoshlaring,
Qalbimga o'yibdi sevgi naqshini.
Ranjigan ko'nghimni olmoqqa, gulim,
Bas, yetar bir bora nozli boqishing.

Biz qurgan o'sha visol saroyi,
Yillar hasratida bunyod bo'libdi.
Olisda tug'ilsak-da bir-birimizdan,
Ruhimiz dunyoga qo'sha kelibdi.

AYRILIQ

Alloh yozib peshonaga ayriliq,
O'chirgan yo'q falak yozgan yozuvni.
Men chidardim har ishva-yu, nozingga,
So'z-la, endi kim tortajak nozingni?

Biz bo'lgandik ming azob, mashaqqatga,
Sen olisda, men olisda, biz qani?
Tutunida bo'g'ilamiz bu ishqning,
O'choq so'nib, kul sovrilar, cho'g' qani?

Men qatliga tortilibman hasratning,
Seni sevmok gunoh bo'ldi, kuch bo'ldi.
Ne orzular, ne xayollar qilgandik,
Sinib ketdi, bitta-bitta puch bo'ldi.

Yomon emish ayriliqning zulmati,
Sevgi to'la ko'zlarimiz ko'rmadi.
Bu ishq bizga kadar berdi abadiy,
Quvonch nomli abadiyat bermadi...



KO'RDIM

Bahor chog'i ko'k chamanda,
Bir go'zalni kezgan ko'rdim.
O'g'irlikcha boqib menga,
Ko'zlarini suzgan ko'rdim.

Xushdir orzu-tilaklari,
Maftun etib malaklarni.
Shabnam tushgan chechaklarni,
Kokiliga tizgan ko'rdim.

Ko'rganda qo'sha xolini,
Parishon etdi holimni.
Qalbgga ekib visolini,
Hasratini uzgan ko'rdim.

Damat edi ishqdan xasta,
Hasrat bo'ldi dasta-dasta.
Nozin chekardi asta,
So'z aytmadi, kusen² ko'rdim.

² Kusen – arazlagan ma'nosida.

HECH NARSA ISTAMASMAN MENI BAG'ISHLA, TORTIQ QIL

Arazlasang deysan "Afv etmasman",
Go'dak bola kabi injiq bo'libsan.
Qasdinga turarsan har qadam boshi,
Jon olgich farishta-la o'rtoq bo'libsan.

Qalximni qalbingga muhrlagandan,
Bir savol berasan "Kimga boqasan?"
Sendan boshqasini ko'zim ko'rarmi?
Gulim, yuragingni nechun siqasan?

Ishqing-la kuylagan shaydo bulbulman,
Bulbulni ko'rgan gul sarg'aymas, so'lmas.
Bas endi, borligimda gunoh axtarding,
O'n to'rt³ o'zgasi gunohsiz bo'lmas.

Sochimning qarosi gunohkor bo'lsin,
Sochimga solganing oqlarni kechir.
Men ancha ko'nikdim o'z toleyim-la,
Aslo istamasman, sen meni kechir.

³ Ahli beytda o'n to'rt ma'sum.



BAHOR UMRIM XAZONGA AYLANMASIN

Sen mening hayotimga kelgan kuningdan,
Nurli ertalardan pay berding menga.
Oydinlik keltirib zulmat kechamga,
Yulduz berding menga, Oy berding menga.

Ma'sum boqishingda hayotni sevdim.
Sen bo'lding ko'zimning oq-u qarosi,
Dardlarim darmoni sen bo'lding, gulim,
Bitmas yara edi ishqning yarasi.

Sevilib yashamoq naqadar go'zal,
Qalbim erkalaydi "sevaman" so'zing.
Sasingni tuyganda ruhim tinchlanar,
Valloh, yuzim kular kulganda yuzing.

Baxtinga yozilgan sevgi qismatim,
Bahor umrim xazonga aylanmasin.
Qalbimda qalading ishq o'chog'ini,
Yonsin cho'g'lanib olovi so'nmasin...

YOZILMAGAN HIKOYAMIZ

Bir zamonlar baxtli edik,
Bu hayotdan zavq olardik.
Darddan olis, g'amdan uzoq,
To'y-bazmdan so'zlashardik.

Xush o'tardi oylar, kunlar,
Ertaklarda yashar edik...
Sevgi nomli bir dunyoni,
Qalbimizda saqlar edik.

Men yozardim hikoyalar,
Sen to'ymasding o'qimoqdan.
Ta'rif aytib ilhomimga,
So'zni so'zga to'qimoqdan.

Hikoyamning qahramoni,
Bir san eding va faqat man,
Qaydan keldi to'satdan kuz?
Xazon bo'ldi bu gul-chaman.

Endi har kas bir faslda,
Tug'ma edik yot bo'ldik biz.
Boq, shundayin yarim qoldi,
Yozilmagan hikoyamiz.



YASHAGAYSAN QALBIMDA

Yoz shuncha tez o'tib ketdi?
Muncha erta keldi kuz?
Vaqt ham qara sening kabi,
Bevafodir, go'zal qiz.

Taqdir tanladi meni,
Sen nomlangan sinovga.
Umrimning bahoridan,
Olib ketdi uzoqqa.

Qalbing tomon yo'llarda,
Adashdi-ku qismatim.
Visoldanmas, hasratdan,
Ulush oldi qismatim.

Hali ham ko'zlarimda,
Malakka o'xshagan qiz.
So'z-la, o'rning qayerda,
Qalbimda yashagan qiz?

KETASAN

Minibsan yana sen araz otiga,
Yuzingni o'girib chetlab ketasan.
Bir bora salomga arzimadimmi?
Yot kabi yuzingni burib ketasan?

Ishonib yolg'onga, yomon bo'htonga,
Egilmas boshimni egib shaytonga.
O'zi tong otgandan, kun botgungacha,
Surilgan xayollar yonar, ketasan?

O'zingni ranjitib, siqma qalbingni,
Hasratga to'ldirib ezma qalbingni.
Ayriliq yuki-la xoritma qalbingni,
Ko'ksingda ranjib sinar, ketasan?

Pushaymon bo'larsan, so'zing qosh bo'lar,
Boy berib sevgini, qalbing tosh bo'lar,
Hising muz bog'laydi, fasling qish bo'lar,
Ko'z yoshing yonog'ingda qotar, ketasan.



INONDIM O'ZIM KABI

Qalb bog'imdan gul-chechak
Terib seni chorladim.
Millionlarning ichidan,
Senga ko'ngil bog'ladim.

Ko'zlarimning nurisan,
Yuragimning hakimi.
Bir Allohga, bir senga,
Inondim o'zim kabi.

Sen baxtimning yulduzi,
Zulmatimning Oyisan.
Rabbimning yo'llagani,
Mening sevgi payimsan.

Hayotimning gultoji,
Yashamoq havasimsan.
Borlig'imni bor etgan,
Havomsan, nafasimsan.

Bu dunyoda sevgidan,
Davlatingman, boringman.
Men umrimning boricha,
Bilki, sening yoringman.

UMR TAQVIMI

Ehtimol tolening bu bir o'yini,
Esdirdi lahzadan qora yellarni.
Olib og'ushiga qaysar shamolni,
Uchirdi to'siqlarni, to'sdi yo'llarni.

O'tar oylar, yillar, biz qariyabmiz,
Vaqtning millari bir on to'xtamas.
Bizning sevgimizning toleyiga boq,
Hasrat mudramaydi, visol uyg'onmas.

O'tgan kunlarimiz yodga tushganda,
Nelarni yo'qotdik ko'ra olamiz.
Biz baxtli kunlarni yozish o'rniga,
Umr taqvimidan bir-bir yirtamiz.

Bitta umidimiz hali ham tirik,
Extimol, ruhlarimiz qovushar bir kun.
Bizni ayro etgan hijronning o'zi,
Chirib tuproqqa ham qorishar bir kun.



YETAR AYRILIQNING G'AMI, KADARI

Oylar, yillar o'tar, umr ozayar,
Hayotimda ko'p emish berganing zulm.
Intizor ko'zimdan qasosin olar,
Sog'inching o'zingdek yomonmish gulim!

Unuta olmadim seni bir lahza,
O'zimni unutdim, o'zimdan tondim.
Bilginki, tark etib ketgan kuningdan,
Sensiz borlig'imni yo'q hisobladim.

Senga xushbaxtlikni men bergan edim,
Mendan olislarda baxtlisan balki?
Chevarlikni o'rganding mening ustimda,
Umr libosingga dard tikib-tikib.

Yetar ayriliqning g'ami, kadari,
Bezdi xayollarim, sabrim tugadi.
Mening yuragimda qulagan sevgi,
Sening yuragingda, balki tiklandi?

O'ZINI O'ZIDAN OLAR DAMATNI

Vasf etmoq istaydi bu shoir ko'nglim,
O'zidan ko'p rozi nozli xonimi.
Yurishi, turishi bir boshqa olam,
Bir bor boqish bilan olar jonimni.

Suzib ko'zlarini jilmayib turib,
Qalximni zabt etib qo'limdan olar.
Meni behush etar, bu qiz atrini,
Shabnamli chamanning gulidan olar.

Har safar ko'rganda husni jamolin,
Hisimni jo'shdirgan to'fonlar o'tar.
Mayda-mayda yoqqan yoz yomg'iridek,
Ishqi,muhabbati ko'nglinga o'tar.

Yaratgan shunchalar go'zal yaratmish,
Aqlimni boshimdan olar qomati.
Hazin shivirlashi, bir og'iz so'zi,
O'zini o'zidan olar Damatni.



AYRILIQ

Hech bilmadik qanday o'tdi fasllar,
Umrning hazon faslida biz ayrildik.
Xo'b qorong'u kechalarda Oy edik,
Bir saharining tumanida ayrildik.

Surganimiz xayollarni obketdi.
Qaydan esdi bu hasratning shamoli?
Ekkanimiz sevgi nomli daraxtning,
Yaprog'ini bitta-bitta uchirdi.

Xotiralar endi meni ovutmas,
Suratlarning aytadigan so'zi yo'q.
Yuragimda asraganman deganding,
Bu sevgining nomi bormish, o'zi yo'q.

BIR NOMA OLDIM

Sevganim go'zaldan bir noma oldim,
Yozibdi qalbidan o'tgan hislarni.
Menga yangi hayot, yangi jon berdi
Qalbidan qalbinga ko'chgan hislari.

O'xshatib ishqini so'nmas yulduzga,
Qo'lingni qo'limdan uzmagin gulim,
Hayotimga qasd qilib meni tark etma.
Bitta tabassuming ruh berar bilsang,

Ayrilib yonimdan olisga ketma.
Shahlo ko'zlaringni menman bemori,
Ilhomimni oldim nurli chehrangdan.
Hijron azobida sarg'ayib, so'ldim,

Ayrilib olisga ketma jonimdan.
Yo Rab, tiliklanib sinar yuragim,
O'z-o'zidan ham tonar yuragim,
Hasratdan gurullab yonar yuragim,

Ayrilib yonimdan olislab ketma.



EHTIMOL KELAR

Vaqtsiz sarg'aygan yaproqlar kabi
Tegdi sochlarimga kuzning nafasi.
Ko'zimni yo'llarda qo'ydi sog'inching,
Sabrimga tor keldi yurak qafasi.

Men seni sevganda dard meni sevdi,
Sevgisi sevgingdan vafoli bo'ldi.
Umrimning bog'iga sening-la ekan,
Umid chechaklari sarg'aydi, so'ldi.

Aytarding men sening so'lmagan guling,
Sen meni yashatgan havosan, suvsan.
Sendan keyin bildim, o'rgandim, gulim,
So'zga sodiq bo'lmoq emasmish oson.

Sening yo'qligingga inongan Damat,
Inona olmaski, toleyi kular.
Umrim ehtimol-la o'tsa ham mening,
Endi so'zlamasman, ehtimol kelar..

QAYT, KO'ZLARIMNING NURINI QAYTAR

Ko'zim o'ngidan ketmas xayoling,
Elanar ustimga sog'inching g'ami.
Sensiz umidlarim har o'tgan kuni,
Bo'ldi ko'z yoshimda botgan bir kema.

Ko'zlarim tikildi sen ketgan yo'lga,
Yog'gan yomg'irlar g'am izingni yuvdi.
Oh urgan qalbmni ovutamanki,
O'ylama, qaytadi, sasingni tuydi.

Ayrilib ketganda tanho ketmading,
Qo'llaringdan tutib sevinchim ketdi.
Xuddi kelganingda obkelgan kabi,
Sen bilan inonim, ishonchim ketdi.

Demasman, qalbmida ishq mash'ali bo'l,
Hech yo'q o'chog'imning qo'rini qaytar.
Kunduzim zimiston kechaga do'ndi,
Qayt, ko'zlarimning nurini qaytar.



YOMG'IRLI KUZ

Yomg'irli kuzakda duch kelgandik biz,
Ikkimiz bir daraxt soyasida edik.
Umr bahorini yo'lga solgandik,
Kuzak xazonining atrida edik.

Chaqmoq nigohimiz to'qnashgan zamon,
To'lgan yuragimda to'fon qo'zg'aldi.
Oq tushgan sochimga kuzak yomg'iri,
Ko'nglimga ishqining shabnami tushdi.

Gullari sarg'aygan sevgi bog'imning,
Sen bevaqt bo'y cho'zgan noz binafshasi.
Shukur qismatgaki, uchrashdik biz,
Ey kuzak umrimning, pok binafshasi.

Bizning sevgimizga shohiddir kuzak,
Na bu fasl bitsin va na sevgimiz.
Kelajak avlodlarga yodgor qolsin,
Kuzak xazonida bahor izimiz.

DENGIZ KO'ZLI

Dengiz-la bahsga kirdi,
Dengiz ko'zli ko'zlaring.
Abadiy o'chirilmas,
Yuragimda izlaring.

Ilohiy go'zallikni,
Ayamabdi sendan.
Sog'inchingni hadya qilib,
Meni olibsan mendan.

– Ayt, qanday sevmayin men,
Dengiz ko'zli go'zalni?
Biroz insofing bo'lsin,
Ey ishqimning azali.

Nur sochgan boqishlaring,
Zulmatim-la olishar.
Har nozingga chidayman,
Noz senga ko'p yarashar.



SEVDIM

Dunyoga ko'z ochdim kuzak faslida,
Balki shundanmikin kuzakni sevdim.
Meni cho'chitmadi qish qahratoni,
Bo'ronga ko'nikib, ayozni sevdim.

Bizning tomonlarni sayr etib kezing,
Bulbulni kuylatar gul hazin-hazin.
Nozik binafshaning, lola, nargizning,
Bag'riga to'kilgan shabnam, yozni sevdim.

Jannat bor yurtimning yoz oylarida,
Shalola toshadi qoyalarida.
Tarovat bo'lsa ham tog', soylarida,
Kurga ko'ngil berib, Orazni sevdim.

Cho'llarga naqshdir gullagan bahor,
Unga ham ko'rpadir qishda yog'gan qor.
Har faslning o'zgacha go'zalligi bor,
Tabiat hukmida tarozni⁴ sevdim.

⁴ Taroz – to'g'ri, tekis ma'nosida.

MUHABBATIMDIR

Kecha bir go'zal bilan yuzma-yuz keldim,
Qoldim qarmog'ida boqishlarining.
Shunday sog'inch bilan boqdi u menga,
Yondim olovida boqishlarining.

Istadim so'z aytay, hamsuhbat bo'lsak,
Ishvasi so'zimni qilichdek kesdi.
Yonimdan o'tganda tuydim atrini,
Qalbim yaproq kabi dir-dir titradi.

Uning xayollari ko'zimda asir,
Uning ishq bilan urar yuragim.
U kundan hasratni yiqitib, buzib,
Visol umidlarin qurar yuragim.

Ehtimol, u mening tole – qismatim,
Ehtimol, bir umrlik saodatimdir.
Men kuzak fasliman, xazon chog'iman,
U bahor iforli muhabbatimdir.



AYRILIQ

Ishq kemamizning yelkani uchib,
Endi daryolarda suzaolmaymiz.
Qanoti singan bir qush kabi biz,
Moviy samolarda uchaolmaymiz.

Ayriliq so'zi o'limdan battar,
Ko'nika olmayman, biz ajralishdik.
Ilk uchrashuv joyida keldik yuzma-yuz,
Aytildi so'ngi so'z, biz ajralishdik.

Ishqimiz ehtimol bir tush edi,
Achchiq bir haqiqat ayrilmog'imiz.
Chekinib bola kabi bir-birimizdan,
Endi bir xayoldir bog'lanmog'imiz.

YASHAYLIK BIZ KULA-KULA

Sog'inganda chaqir meni,
Chaqir meni, sas bergum.
Sening bitta boqishingga,
Bu dunyomni shart bergum.

Sensan mening hayotimda,
Bahor fasli, gul-chechaksan.
Kechalari zulmat ichra,
Nur bahsh etgan bir malaksan.

Men yana ham qo'llarimni,
Qo'y, o'rayin nozik belga.
Kel bir umr ayrilmaymiz,
Yashaylik biz kula-kula.



NOZIK XAYOLLAR

So'rayapsan qandaysan?
Umr jondan suv ichar.
Fasllarim o'zgariib,
Oylar o'tar, yil o'tar.

Sensizlik-la qaridim,
Endimi tushdim yodga?
Sog'inching-la yashamoq,
Orzum bo'ldi dunyoda.

Yolg'izlikning o'tida,
Umidlarim qalandi.
Kezgan yerlarimizda,
Xayollarim aylandi.

G'amli satrlar yozgan,
Qo'lingdan uzoq qo'ldir.
Sensiz uchrashuv joyda,
Xayol ham zaiflashdi.

KOSHKI

Qalbmni yondirgan sog'inch o'tini,
Visolning yomg'iri so'ndirsa koshki.
Umrimda biror kun g'amning o'rniga,
Mening xushbaxtligim so'zlasa koshki.

Tunlar ko'zimga vido aytganda,
Tonglar ochar edi qo'lini menga.
Orqamdan suv sepib yillarning dardi,
Ko'rsatdi sevinchning yo'lini menga.

U yo'lda bo'lsaydi xayolimdagi,
Otilib bo'ynimga osilsa koshki.
Yillar yuragimni etgan intizor,
O'zi biror kunga toliqsa koshki.

Ehtimol, orzular yashatar meni,
Ehtimol, orzuning o'ziman ortiq.
Men bunday dunyoning tarozisida,
Umidlarni tortgan ko'ziman ortiq.



SEN KELMADING

Yana keldim uchrashuvga,
Yana ochdim qo'llarimni.
Bu havoda, bu yomg'irda,
Yana kutdim yo'llaringni.
Sen kelmading.
Cho'ntagimda yashiringan,
Sochlaringda kezgan qo'ldir.
Bir-bir tushgan yaproqlardan,
Kuzakning ham atri keldi.
Sensiz qolgan uchrashuv joy,
Bugun meni qancha siqdi.
Sendan oldin asta-asta,
Hasrating ham kelib chiqdi.
Sen kelmading.
Bilamanki, seni, gulim,
Ancha yillar yo'qotgandim.
Uchrashuvga so'nggi umid,
Tobutini keltirgandim,
Sen kelmading...

BIZSIZ QOLGAN SEVGIMIZ

Qoʻllaring sogʻindimi,
Taftini qoʻllarimning.
Ruhing tinlanarmidi,
Sheʻrimning ohangiga.

Hijronning koʻz yoshlari,
Oqarmi yonogʻingdan?
Mensiz qandoq chiqarsan,
Taqdirning sinovidan?

Koshki kelsaydi u kunlar,
Sevinardi qalbimiz.
Bizim-la bor boʻlardi,
Bizsiz qolgan sevgimiz.



ISHQ KUZAGI

Oshiq bo'lganlarni devona derlar,
Dallilik insonning xislatidandir.
Sevgi qozonilmas mol-davlat bilan,
Muhabbat taqdirning qiymatidadir.

Kimdir sevgiga bir o'tkinchi boqar,
Kimdir Majnun singari sevar.
Kimning qalbida muqaddaslashar,
Kimdir qalbidek oddiyini sevar.

Aldanib otilgan chechak Laylilar,
Tashvish-la yashaydi bu shon hayotni.
Yomon sovuq bo'lar ishqning kuzagi,
Xazonga aylantirar gulshan hayotni.

OQARGAN SOCHLARIM KUTMOQDA SENI

Sayriga tolibman oyli kechaning,
Ko'ksimga chekyapman salqin mehrini.
Yana xotirlab eslayman bir-bir,
Senli kunlarimning chuqur sehrini.

Har kimdan so'rab axtardim seni,
So'ragan bo'lmadi holim qandaydir?
Sensiz yashayapman senli dunyoda,
Ko'r qancha tonglar-u, qancha kechadir.

Unutma sevgilim, sen ketgan yo'lda,
Oqargan sochlarim kutadi seni.
Qanchalar yuragim sendadir, gulim,
Hislarim soyang bo'lib izlaydi seni.



SEN

Oy osilgan derazamdan,
Ko'kning yuzi bo'ldi oppoq.
Yulduzlarning orasida,
Bir men borman va bitta sen.

Kelajakka yo'lga tushdik,
Yulduzlardan o'ta-o'ta.
Ikki jonning bir qalbimiz,
Osmondamiz biz bu kecha.

Menman sevgining osmoni,
Yulduzi sen, oyi sensan.
Zulmat cho'kkan kechalarning,
Nur nomlangan hadyam sensan.

Ey qalbimning sen hamdami,
Ishqimning ilki, azali.
Yaxshiyamki yozib qo'ygan,
Taqdirimga sen go'zalni.

Go'zallikning qarshisida,
Farishtalar ta'zim qilar.
Yaxshiyamki bu dunyoda,
Yo'llarimiz qo'sha ketar.

UNUTMOQCHI BO'LDIM SENI

Unutmoqchi bo'ldim seni,
Sochlarimga tushgan oqda.
Arosatda orzularim,
Dedi: Gunoh yo'qdir senda..

Sendan qolgan xotira ham,
Yetimdayin menga boqar.
Yoshi qotar ko'zlaringda,
Uvalanib meni siqar.

Hasrating-la quchoqlashib,
Ba'zan hamsuhbat bo'laman.
Bosh qo'yganda tizlarmga,
Atrini undan olaman.



ALLOHGA XITOB (Munojot)

Sen ey ulug'lardan ulug', Allohim,
Butun mushkullarni yechgan, Allohim.

Faqat ishqing bilan qalbim borlig'i,
Bu ishq birla gullar umrim bahori.

Ilohiy, bilmayman, kimman, nimaman,
Sening dargohingda bir tilanchiman.

Bu so'z bog'idir, ko'ksimda yurak,
Sevging-la ochilar gulg'uncha bo'lib.

Yo Rabbim, kimim bor sendan o'zga,
Noming bilan nurlanar ko'nglim saroyi.

Tingla dodimni, tingla ovozimni,
Qo'yib ber ishqing-la olay darsimni.

Kiydirgin so'zimga hikmat to'nini,
Sensan o'ylarimning avvali, so'nggi.

Tuganmas qudrating, ming bir noming bor,
Sening har noming uchun e'tiqodim bor.

Barcha hukmlarning hukmdorisan,
Haqning, adolatning vafodorisan.

Yo Rab, zolimlarning ajali sensan,
Sening adolating, hukmingga ehson.

Avvalim, oxirim, so'nggimdir tuproq,
Sen bergan muborak to'nimdir tupqor.

Mening toleyimda o'tgan har onim,
Bo'ynimda osig'liq sening farmoning.

Jon ham, jon oluvchi ham sening asiring,
Yashirin, mubhamdir sening sirlaring.

Sening qudratingni vasf etmoq uchun,
So'z yig'lar ko'ksimda dardga ko'milib.



OTA

Boshingdan o'tibdi ko'p balo-qazo,
Yashagan hayoting ko'rmasin xazon.
Men seni sevaman dunyolar qadar,
Tilimning eng totli so'zisan, ota!

Sendan kuch olar har kalimam, so'zim.
Nomingdan bo'y cho'zar qalbimda chidam.
Bu hayotda hamisha oq bo'lib o'zim,
Chin orzularimning o'zisan, ota!

Tug'ma iforing ila ruhumda to'lding,
Qalbimni isitar nafasing, o'ting.
Umrimga abadiy yarashar bo'lding,
Sen nurli tolening o'zisan, ota!

Sevgidir umringning quchog'i, qo'yni,
Shavq bilan o'tkazar farzand to'yini.
Sevinch bilan silaysan nevara boshini,
Orzumning nur to'la ko'zisan, ota!

EH, OTAM QARIYAPTI

(Otamning 80 yillik yubiliyega bag'ishlanadi)

Saksonga yetib yoshi,
Yashagan sari ulug'.
O'tmoqda umrning qishi,
Eh, otam qariyapti.

Umr bir-bir yulinyapti,
Yaproqlar to'kilyapti.
Savol misol yig'ilib,
Eh, otam qariyapti.

Sekin kelar nafasi,
To'lqinlanar havosi.
Siniq chiqar ovozi,
Eh, otam qariyapti.

Umri qo'lidan tushdi,
Vaqtku suvdek kechadi.
Yoshligidan ne qoldi?
Eh, otam qariyapti.

Yo'qotib halovatin,
Toqatsiz qo'l-oyog'i.
Bir ertakdir hayoti,
Eh, otam qariyapti.





Qanot ochmas xayoli,
Bag'ri lolaning holi.
Bir elning oqsoqoli,
Eh, otam qariyapti.

U kulganda kulibman,
Sevinchimni bo'lishdim,
Bugun buni bilibman,
Eh, otam qariyapti.

OTAMNING...

U mening azaldan qiblagohimdir,
Ham umid yerimdir, ham panohimdir.
Bahor ertangdir, yoz esa ertamdir,
Quyosh kabi nurli – otamning yuzi.

Go'yo qor yog'gandek ulug' boshiga,
Qurbonman peshonang har qarichiga.
Bir umr yo'limning har qarichida,
Tushgandir otamning pok qadamlari.

Orzusi sochini yoyib Janubga,
Yuragi chidaydi ming azoblarga.
Saksonning belini sindirgum deya,
Otamning tizzasi titrar ohista.

Dunyo boshdan oyoq bo'ysungan tuzum,
Hikmat chashmasidan suv ichgan o'zim.
Hayotda bir ota bo'lsam ham o'zim,
Boladek qaraydi otamning ko'zi.

Hech qachon o'zgarmas uning odati,
Doim xavotirda bolalaridan.
Meni bu dunyoning balolaridan,
Saqlaydi duosi, so'zi – otamning.



HAQNING OVOZI

«Sahovatli bo'ling», degan otalar,
Yetimning, yesirning qo'lidan tuting.
Lablardan chiqqanda u sening emas,
So'zlar sohibining tilidan tuting.

O'ylama kunlarni, keladi so'nggi,
O'zingga qilishar qasd-g'arazlarni.
Yaxshilik yomonlikning kaforatidir,
Mavlom tuzatadi tosh-tarozisini...

O'ylama, kun o'tib keladi so'nggi,
Har kunning o'ziga tarix yoshi bor.
Qanchalar qochsang ham, ey inson o'g'li,
Mozoring boshida marmar toshi bor...

Nomus bilan yashagan vijdonli inson,
Yengilmas nafsingga jannat yetarli.
Ovozin o'zidan ulug' bilganlar,
Borliqda bir ovoz – Haqning ovozi...

SAMARQAND

(Samarqand shahrida)

Qo'shiq aytar hazin-hazin,
Erta tongda yog'gan yomg'ir.
Samarqandni ko'rgan har kim,
Bu shaharga qilar olqish...

Go'yo yomg'ir tomchilari,
Toshlariga naqsh ishlardi.
Bu ko'chaning tarixidan,
Chopib kechgan ot kishnardi.

Sayr etganda manzarani,
Olar meni o'tmishiga.
Yoshlik ruhi baxsh etadi,
Umrim oltmish-yetmishiga.



SHOIR BORKI...

Shoir borki, gul iforli,
She'ri kabi qiymatlidir.
Shoir borki, yo'l ko'rsatar,
Har misrasi hikmatlidir.

Shoir borki, so'z yig'ini,
O'qigancha til aylanar.
Hujum etib fikrlarga,
Yurt kezib, el aylanar.

Shoir borki, umidlarga,
Orzular ham tayanch bo'lar.
Zulmatlarda azonlarga,
Yo'l ko'rsatgan mayoq bo'lar.

Shoir borki, bir misrasi,
Xafalarni yarashtirar.
Shoir borki, o'qigan sari,
Yuraklarni ko'niktirar.

BILGAHGA⁵ YOMG'IR YOG'DI

Osmanni bulut olgach,
Rangi quyuq qoraydi.
Ruhim xayolga tolgach,
Bilgahga yomg'ir yog'di.

Jo'shib qalbim ovozi,
Sayr etaman dengizni.
Gul ochgach malak yuzi,
Bilgahga yomg'ir yog'di.

Bulutning ko'z yoshlari,
Qovrilibdi toshlari.
Ochgandir so'z naqshlari,
Bilgahga yomg'ir yog'di.

Kezaman og'ir-og'ir,
Shalabbo bo'ldim faqir.
Hislarim chaqmoq chaqar,
Bilgahga yomg'ir yog'di...

⁵ Bilgah – Kaspiy dengiz sohilidagi Absheron vodiysida, Boku shahridan unchalik uzoq bo'lmagan yerda joylashgan shahar tipidagi posyolka.



KO'ZIMGA BOQ

Jon olasan qarashing-la,
Shon-shuhratga, nomga boqma.
Yuragimni qilib yara,
Yuz o'girib, yodga boqma...

Senga ayta olmaganim,
So'zni o'qi, yuzimga boq.
Agar topmoq istasang gar,
Sen o'zingga, ko'zingga boq.

Qara sen ko'zlarimga, sevgilim,
Senga oid bir dunyomni.
Balki unda o'z ko'zing-la,
Sayr aylaysan sir dunyomni.

CHAQIR MENI

Chaqir meni,
Chaqir, kelay,
Shamol misol.
Chaqir, kelay.
Gul iforli sochlaringga bir shoh kabi
Yuz-ko'zingga tumor tortay...
Sochlaringni ohista silay...
Umrimizga kirsin ma'no,
Sevgi nomli kunlarimiz.
Achchiq, shirin kunlarimiz.
Tugasin gar yarim qolgan,
Sevgi otlig' hikoyamiz...
Ortga qaytsin sof, toza kunlarimiz.
Nola tinsin dudoqlarda.
Yuzingdagi ul xolingga qo'shiq bitay,
Dengiz misol yana jo'shay.
Yana qo'l ushlab sohillarda,
Kel, qovushaylik,
O'tib ketmasdan yillar hali.



INSONLAR

Baxtsiz insonlar..
Kechalar tortarlar tongning yukini.
Balki kechaning yoki o'tmishning,
Gunoh yukini ortganlar.

Insonlar, insonlar..
Ba'zilar yig'laydi, ba'zilar kular,
Ba'zilar o'lib yashar,
Ba'zilar sog' ekan o'lar.

Baxtsiz insonlar hayotida,
Eh, ishlaydi-ishlaydi,
O'z o'tiga ko'nikar.
Goh ezilar, goh ayblanar,
Har kun yashash bilan sinovdan kechar.

HUSAYNNI SEVGANLAR YIG'LAR

Islom, adolat maktabi,
Mardlik, diyonat maktabi.
Ko'rgach, shahodat maktabin,
Husaynni sevganlar yig'lar...

G'amli nola deganlarga,
Qora libos kiyganlarga,
Ko'ksini mushtlaganlarga,
Husaynni sevganlar yig'lar...

Yakka zotni ko'rganlarga,
Yetmish ikki eranlarga,
Suvsiz jonin berganlarga,
Husaynni sevganlar yig'lar...



TANHO GUL

Tog' ustida gulni ko'rdim,
Bo'yni bukik, dardli, g'amli.
Chayqaladi tanho o'zi,
Yonoqlari namli-namli.

Yonog'idan yoshni artdim,
G'am chekibsan, ey tog' guli.
Hech g'am chekmagin dedim,
Sen gullarning eng nozlisi.

Dard shoirni mingga bo'ldi,
So'zladiki, yakka o'zim.
Ziyrakligim shoshganimdan,
Tez ochilib, tez so'lgayman...

OZOD INSON

Shivirlagan bir sas keldi,
Balki, Tangrining sasidir?
Ko'ksim to'ldi, zindon bo'lib,
Yuragimning qafasidir.

Nafas olib berganda men,
Nafasim ham Alloh deydi.
Malak kelgan haq yo'lida,
Shayton hatto gunoh deydi.

Bir shivirlash so'zlar manga,
Bir yuzing bor, insonlikdir.
Unutmaki, vaqt ketadir,
Umr vaqting bir onlikdir.

Quli bo'lsang o'z nafsingni,
U dunyoda ko'rmas seni.
Ko'magingga chaqirsang ham,
Bu dunyoda eshitmas seni.

Uch chegaradan kecha olmas,
Haqni, ahdni, ontni banda.
Aqidangni qo'rigaysan,
Ozod inson bo'lsang sen ham...



QIZIMGA BAG'ISHLANADI

Hayotga kelishing sevinch keltirdi,
Tangridan nur poyim sen bo'lding, qizim.
Yangi yosh taqviming muborak bo'lsin,
Ey mening bahorim, ey mening yozim.

Otangning yuragi, onangning joni,
Tangrining sevimli bandasisan sen.
Onaning dunyosi, sevinch-shodligi,
Otaning borlig'i, nafasisan sen.

Kattaga, kichikka hurmat saqlading,
Ruhingga hokimdir, dining, iymoning.
Ilohiy ishq ila to'ladir qalbing,
Istagim, xush kechsin – vaqting, zamoning.

SO‘Z AYTAMAN

Kel, senga bir so‘z aytaman,
Umr o‘tar, azobli o‘tar.
Xotirlar savollarda, vaqt o‘tar..
Kel, vaqt borasida so‘z aytaman,
Hech insofi yo‘qdir uning,
Dardi, g‘ami yo‘qdir uning.
Bir daqiqa ham chidolmas.
G‘aflatdadir, uyg‘onmas.
Uyg‘on desang, ishonmas.
Kel, ishonchimdan bir so‘z aytaman,
Ishonch kerak qalbg a doim,
U qalb senga ilohiydan ehson,
Saqlar omonatni inson doim.
Kel, insondan bir so‘z aytaman,
Yaratganning seva-seva yaratgani,
Shoh asarlarining a‘losi,
Bu dunyoning hammasi,
Bashariyatning oliysi...



HIDOYAT YO'LI

Rabbim bergan umrni,
Omonat misol tashiyman.
Iymonim ko'ylagini,
Kiyinib yashayapman...

Bu dunyoning har oni,
Mo'jizaga to'lgandir.
Zulmatlarning ketishi,
Hidoyatning yo'lidir.

Bu hayotga keldim-u,
Yaratganni angladim.
Gunohsiz yaraldim-u,
Gunohsiz tark etgum.

VAQT TEZ O'TAR

Qaraysan, qo'l ushlab ketganlarga,
O'tgan kunlaringga olib borar seni.
Go'yo xotiralar tutib qo'lingdan,
Bu kunlardan tortib olar seni.

Binafsha ham horg'in, qish ham horg'in,
Yoyilar shamolda hijron ifori.
Uzun kechalarda ko'zga ko'rinmas,
Chiqqan quyoshning ham kelar uyqusi.

Biroz yomg'ir yog'ar, biroz tuman bor,
Yaproqlar sovqotar, turnalar ko'char.
Ba'zan o'zingga savol berasan,
"Qarayman, nega vaqt buncha tez o'tar?"



YOZ IFORLI GULLARIM

Hayotimning bezagi,
Yoz iforli gullarim.
Iforingga o'ralganda,
Qaytib kelar yillarim.

Devorlar ila o'ralgan,
Go'yo go'zal naqshdir.
Bu chiroy qarshisida,
Qotar inson ko'zlari.

Har sahar uyg'onganda,
Umringga umr qo'shar.
Tumor taqmoq istasam,
Qo'limga tikan botar..

ONALAR

Dunyoning la'l-injasi,
Bor qiymatidir onalar.
Farzandining darddoshi,
Sirdoshidir onalar.

Qalbidagi sevgi ham,
Dengiz kabi toshadi.
Farzandini shod ko'rsa,
Sevinchidan jo'shadi.

Joniga jon qo'shilar,
Ona mehr ko'rganda.
Har safar yuksaladi,
Oldida bosh egganda.



JANNATNING RAYHONLARI

Ko'zimizning nuridir,
Buloqlarning duridir.
Qalbimiz g'ururidir,
Jannatning rayhonlari.

Alloh bergan ne'matdir,
Yaralishga hikmatdir.
Bizlarga omonatdir,
Jannatning rayhonlari.

SENSIZ O'YLARIM

Bilasanmi, nimani o'yladim?
Sensiz o'tgan vaqlarimni,
Hasrating-la o'sib borgan gumonimni.
Titkiladim idrokimni.
Sen-la bo'lgan orzu, tilak
Sensiz qoldi.
Chidolmadim umr o'tar,
Vaqtim bora-bora ketar.
Bilasanmi, hayot zolim, ham murakkab,
Istasang man aytaman, nedir sabab.
Nafsimizdir doim bizni qul etgan.
Iz qolmagan izimizda,
Ishq ko'milgan ko'zimizda,
Endi so'zla, kimda gunoh,
Vaqtdamikan yoki bizda?



ISHQ ILOHASI

Osmon, yerning bir donasi,
Yuragimda hammadan
Yashirganim dur donasi.
Satr-satr yozganim,
She'rlarimning g'oyasi,
Ishq ilohasi...

Malaklarning tabassumi,
Sen ishqimning nafasi.
Ovozing ohangi ham,
Buloqlarning shildir sasi.
Ishq ilohasi...

Yo'qdan bor bo'lganim,
Umidlarim panohisan.
Ko'nglimdan nur sochganim,
Kechalarning tongisan.
Sevgining eng cho'qqisi,
Ishq ilohasi...

AZIZIM

Yillarga tayangan umr karvonim,
Seni kutadir sevgi sarbonim.
Yo'limiz, izimiz doimo birdir,
Ko'ksimda urgan yuragimiz bir.
Shuningdek, bilmaydi bizni falak ham,
Sevgimiz bo'y cho'zar sevgan yurakda.
Tole – qismatingdan qocha bilmaysan,
Ko'nglingni hech kimga ocha bilmaysan...
Asl sevganlarning hasrat ulushi bor,
Hammaning hayotda qismat ulushi bor.
Hayot o'z oqimi bilan keltirgan seni,
Dardimga malhamdek keltirgan seni...
Falakda yulduzimiz uchadir bizni,
Yerda kim ayirar bizni, azizam?



HAYOT O'ZI BIR ERTAK

Ertaklar olamida,
Yashayapmiz, qariyapmiz.
Biz zamon qo'llarida,
Har kuni toshlanyapmiz.

Hayot o'zi bir ertak...
Xayollar misli charxpalak.
Orzularimiz kamalak,
Falak esa rang-barang.

Hayot o'zi bir ertak.
Bilmaysan necha yuzi bor.
Umrimizning fasllari,
Kechasi-yu, kunduzi bor.

Hayot o'zi bir ertak...
Malikmemmedi⁶, devi bor.
Pichog'i-yu, tikani ko'p,
Kafanining ham cho'ntagi bor.

Hayot o'zi bir ertak...
Uyqudagi qiz, uyg'on ortiq!
Yo qadam tashla haqqa to'g'ri,
Yo qon to'kma, chida ortiq!

⁶ Aslida Məlikməmməd. Ozarbayjon xalq ertagidagi qahramon.

BILAR

Yuragimda sirli ne bor,
Men bilganni u ham bilar.
Yer-u osmon sirlarini,
Sir sohibi xudo bilar.

Bu dunyoning yo'lagini,
Telbasini, donosini,
Tarozi-yu, o'lchovini,
Sir sohibi xudo bilar.

Yaratgandir kecha-kunduz,
Necha milliard yillar avval...
Sirotindan kimlar kechar?
Sir sohibi xudo bilar.

Doxilida, zohirida,
Sirlaridan, zuhurida,
Avvalida, oxirida,
Sir sohibi xudo bilar.



ISTAYMAN

Dunyomizni ozod ko'rmq istayman...
Urushlardan ortiq bezdim,
Xavotirdan
Yuraklarni titratgan,
Orzularni, tilaklarni titratgan ovozingdan,
Shayton vasvasasidan.
Ozod inson, ozod o'lka...
Bitsin endi nafrat, o'pka!
Irqidan, millatidan, rangidan uyalmagan,
Bir-biriga birodar degan dunyoning
Insoni bo'lmoq istayman!
O'ralashmay vaqtning oyog'iga,
Bolta urmasdan osmon tayanchiga!
Egilmasdan, inson kabi inson bo'laylik!
Insoniyatga qulluq etaylik...
Do'st bo'laylik!
Bizning ozod dunyomizda
Chegara nomli so'zni
Tilimizdan uloqtiraylik,
Chegarani uloqtiraylik...
Nafrat nomli hissimizni
Qog'oz misol bukib otaylik
So'zimizga mehr qo'shaylik!
Tog'imizni, tuzimizni qadrlaylik!
Biz Allohning yaratgani shoh asarmiz,
O'zimizga qadr beraylik!

ORTGA QAYTAR

Xayollarga tolqansan...
Qidirar ko'zlaring hayotning eng baxtli
kunlarini...

Yo'toqma umidlaringni.
Kun keladi,
Ortga qaytar,
O'tib ketgan baxtli onlar...
Hech kutmaganing bir onda,
Sevinch ko'z yoshlari, kular yonoqda.
Qaytar senga to'lqin misol.
Makon qurar
Senlik sohillarga.
Qaytar salqin shabada misol,
Yana sochlaringni taraydi, iliq nafasi ila,
Yuz-ko'zingni silaydi yashash havasi ila.
Yo'qotma umidlaringni!
Unutmaki, hayot kinozal.
Bir qarasang, chiroq so'nar,
Baxtli onlar bir onlik,
Kino lentasi kabi ko'z o'ngingdan kechar,
Ortga qaytar!

ULG'AYISH

Istadim dunyoda hech ulg'aymay,
Istagimni pisand qilmas ulg'ayish.
Chaqirilmagan mehmondek uyimga,
Qo'lida hassa ila keldi ulg'ayish...

Guli so'lmasin bog'-rog'larimning,
Boshi qor bo'lsa-da, sevgi tog'imning,
Umr taqvimida sevgi davrimning,
So'ngginchi kunini o'chirdi ulg'ayish.

Yoshligim o'tib ketmasin behudaga,
Yo'ldoshdir umrimga g'am-g'ussa, kadar,
Yashadi qalbimda kelgunga qadar,
Kelib ko'zlarimda o'ldi ulg'ayish.

BUNDAY SOVUQ KO'RMAGANDIM

Dunyo bo'ldi hayron oyda,
Bahor bilan qish poyida.
Bu yoshgacha may oyida,
Bunday sovuq ko'rmagandim.

Shamol esar, yomg'ir yog'ar,
Yil yillardan kelar og'ir.
Hayron boqib ojiz, ilojsiz
Bunday sovuq ko'rmagandim.

Bulutlarda to'lib gunoh,
Fasllardan bezgan valloh.
Yoz qutqarar, havoga boq,
Bunday sovuq ko'rmagandim.



OTA UYI

Ota uyi, xotiralar makoni.
Yana keldim quchog'ingga,
Sovuq, muzga do'ngan o'chog'ingga.
Hech kim yo'q.
Faqat men va bo'm-bo'sh xonalar.
Devorda osig'liq suratga qarayman.
Tanholikdan charchagan tasvirlar ham
Go'yo tilga kirib menga "ketma", deydi.
Savol beraman qarashlarim bilan.
Bilasizmi, azizlarim, bu xonada kimni,
nimani izlayman?

Sizning hazin sasingizni,
"Jonim, o'g'lim", so'zlarini,
Nafasingizni izlayman.
Izlayman sho'xliklarimni,
Ulg'ayishimni,
Bolaligimni.
Kezaman uyning har yonini,
Topolmasman bolaligimning sevinchini.
Ellik yillik o'tmishimga qaytsam deyman.
Bu bir xayol, bilaman,
Xayollarda kezaman!
Tug'ilib ulg'ayganim,
Sevinib kulganlarim,
Tug'ilib o'sgan bu uyda kim bor endi?
Qayg'uli shakllar,
Va jonsiz nelar, nelar...

EMAN DARAXTI BILAN SUHBATIM

Bu kunlarda o'z yurtimni, o'z elimni,
Qarich-qarich keza-keza,
Salom berdim, salom oldim gul-chechakdan,
Salom oldim shabadadan,
Salom oldim har yurakdan.
Har yurakning o'z qadri bor,
Har gulning o'z ifori bor.
Ko'p sevgum bu vatanni,
Bu vatan tuprog'idan kezganni,
Samosida uchgan qushni,
Qoyasini, toshini.
Ulkan eman soyasida,
Bir daraxtga salom berdim.
Deydilarki, o'n asrdir umr kechar,
Shahid bo'lganlar nelar ko'rar,
Dedim unga, gapir menga,
Sodir bo'lgan hodisalardan,
Bu dunyodan ketganlardan.
El-yurtimdan,
Shoh⁷ otamdan,
Qizilboshlar qo'shinidan.
Hech ko'rdingmi shoh otamni?
Rivoyat bor bizning elda.

⁷ Ismoil Safaviy nazarda tutilmoqda.





Erkivanda⁸ “shoh sefining” bulog’in
o’zi qazgan.
Sen, ey eman, u buloqdan suv ichdingmi?
Ulkan eman g’amgin-g’amgin boqdi menga.
Qarab turib aytdi so’ngra
“Xotiramdagilarni aytsam senga,
Tarixdan so’z ochsam,
Umring yetmas tinglamoqqa.
Faqat shuni aytolaman,
Xalqimizda mard og’lonlar ko’p,
Doim bo’lgan...”

⁸ Asl shakli Ərkivan, Ozarbayjonagi bir shaharcha.

MUNDARIJA

So'zboshi.....	3
To'lqinlar.....	5
O'g'uz yurti Ozarbayjon.....	6
Men turkiyman.....	7
Ilohiy go'zallik armug'on etib.....	10
Ketma.....	11
Qo'limni qo'lingdan olmagin deyman.....	12
Shabnam muhabbati.....	13
Uzoqqa ketma.....	14
Bu dunyoning tosh yoddoshi.....	15
Shahidim bor.....	16
Ehtimol.....	17
Qanday sevishim.....	18
Kelgan kun.....	19
Ayol.....	20
Aylaydi.....	21
Ul shahlo ko'zlarning.....	22
Sog'inch she'ri.....	23
Bor.....	24
Yashat meni.....	25
Ko'nglinga singdi.....	26
Nega sen jimsan?.....	27
Bugun senga sim qoqdim.....	28
Sevgan yuragimning yuksak yerisan.....	29
Ruhimiz dunyoga qo'sha kelibdi.....	30
Ayriliq.....	31
Ko'rdim.....	32
Hech narsa istamasman meni bag'ishla, tortiq qil.....	32
Bahor umrim xazonga aylanmasin.....	34

Yozilmagan hikoyamiz.....	35
Yashagaysan qalbidamda.....	36
Ketasan.....	37
Inondim o'zim kabi.....	38
Umr taqvimini.....	39
Yetar ayriliqning g'ami, kadari.....	40
O'zini o'zidan olar damatni.....	41
Ayriliq.....	42
Bir noma oldim.....	43
Ehtimol kelar.....	44
Qayt, ko'zlarimning nurini qaytar.....	45
Yomg'irli kuz.....	46
Dengiz ko'zli.....	47
Sevdim.....	48
Muhabbatimdir.....	49
Ayriliq.....	50
Yashaylik biz kula-kula.....	51
Nozik xayollar.....	52
Koshki.....	53
Sen kelmading.....	54
Bizsiz qolgan sevgimiz.....	55
Ishq kuzagi.....	56
Oqargan sochlarim kutmoqda seni.....	57
Sen.....	58
Unutmoqchi bo'ldim seni.....	59
Allohga xitob (<i>munojot</i>).....	60
Ota.....	62
Eh, otam qariyapti.....	64
Otamning.....	65
Haqning ovozi.....	66
Samarqand (<i>Samarqand shahrida</i>).....	67
Shoir borki.....	68

Bilgahga yomg'ir yog'di.....	69
Ko'zimga boq	70
Chaqir meni.....	71
Insonlar	72
Husaynni sevganlar yig'lar.....	73
Tanho gul.....	74
Ozod inson	75
Qizimga bag'ishlanadi.....	76
So'z aytaman	77
Hidoyat yo'li	78
Vaqt tez o'tar.....	79
Yoz iforli gullarim	80
Onalar.....	80
Jannatning rayhonlari	81
Sensiz o'ylarim.....	81
Ishq ilohasi.....	82
Azizim	83
Hayot o'zi bir ertak.....	84
Bilar	85
Istayman	86
Ortga qaytar	87
Ulg'ayish.....	88
Bunday sovuq ko'rmagandim.....	89
Ota uyi.....	90
Eman daraxti bilan suhbatim	91



Adabiy-badiiy nashr

Damat Salmano'g'li

TANLANGAN SHE'RLAR

Bosishga 2024-yil 17-sentabrda ruxsat etildi. Bichimi $84 \times 108^{1/32}$.
Ofset qog'ozi. Shartli bosma tabog'i 6,0.
Adadi 200. 70-sonli buyurtma.

«RATRIN MATBAA MARKAZI» XK bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,
«Oq-ota», Ko'kalamzor ko'chasi.